



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025 yil 26-mart, № 61 (8956)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## MAMLAKATIMIZDA HUKM SURAYOTGAN TINCHLIK VA BARQARORLIK — BIZNING ENG KATTA BOYLIQIMIZDIR

25 mart kuni barcha hududlarda ehson dasturxonlari yozilib, iftorlik marosimi o'tkazildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida o'tgan iftorlikda ishtirok etdi.



Tadbir avvalida davlatimiz rahbari xalqimizni va jamiki musulmon ummatini muborak Ramazon oyi bilan yana bir bor tabrikledi.

— Ushbu sharofatli oyda go'zal diyorimizda mana shunday fayzli iftorlik marosimini el-yurtimiz bilan birgalikda o'tkazish nasib etgani uchun mehribon va qudratli Alloh taolaga behisob shukronalar aytamiz, — dedi Prezident.

Mamlakatimizda "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezgu g'oya hamma ishda asosiy dasturga aylanmoqda. Fuqarolarning huquqlari, vijdon erkinligi ta'minlanayotgani Ramazon oyida yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Muqaddas dinimiz buyurgan xayrli amallar — ahilik va hamjihatlik, mehri-saxovat, qanoat, axloq-odob, ilmu ma'rifati fazilatlarini jamiyatimizda tobora mustahkam bo'lib bormoqda.

Islom dinining insonparvarlik mohiyatini chuqur o'rganish, buyuk tariximiz va madaniyatimiz durdonalarini, ulug' allomalarimizning boy merosini to'plash va keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, shu maqsadda poytaxtimizda

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etilmoqda. Bu ulkan ilmiy-ma'naviy loyiha necha ming yillik taraqqiyot yutuqlarini o'zida mujassam etib, islom sivilizatsiyasi yurtimizda aynan ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'rifati asosida rivojlanganini tasdiqlaydi, yoshlarimizni buyuk kashfiyotlarga ruhlantiradi.

Samarqandda hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy majmuasi qurilishi ham jadal davom etmoqda. Buyuk ajdodimiz hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan muzey va ilmiy dargohlar bilan birga, 10 ming kishilik masjid buniyod etilmoqda. Bu ikki muhtasham obida joriy yilda ochilishi rejalashtirilgan.

Prezidentimizning 14 martdagi qaroriga muvofiq, bu yil Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligi keng nishonlanadi. U zotning Samarqanddagi muborak qadamjosi yanada obod qilinadi, boy ilmiy merosi va moturidiylik ta'limoti xorijiy olimlar bilan hamkorlikda o'rganiladi.

Yurtimizdagi turli millat va din vakillari o'rtasida ahillikni kuchaytirish maqsadida shu yil sentyabrda yana bir tadbir — Toshkent va Samarqand shaharlarida "Deklaratsiyalar muloqoti forumi" o'tkazildi.

Bundan tashqari, yurtimiz hojilarining tashabbusi bilan kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, ehtiyojmand oilalarga 6 milliard 300 million so'm miqdorida moddiy yordamlar ko'rsatilgan.

Yurti obod qilish, ko'chat ekib, bog' yaratish ham savobli ish. "Yashil makon" umummilliy loyihasi aynan shu maqsadga qaratilgan. Hozirgi bahor mavsumining o'zida diniy soha xodimlari tomonidan 10 ming tupdan ziyod daraxtlar, 32 ming tupga yaqin gullar ekildi, masjid va ziyoratgohlar atrofi obod qilindi.

"Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"ga oid davlat dasturi doirasida tabiatparvarlik ko'lami yanada kengaymoqda. Yaqinda Xiva shahrida o'tkazilgan Konfessiyalararo kengash majlisida yurtimizdagi diniy konfessiyalar vakillari mazkur davlat dasturida faol ishtirok etish bo'yicha murojaatnoma qabul qildi.

Ushbu iftorlik marosimida ham xorijiy davlatlar elchilari, xalqaro tashkilotlar hamda diniy konfessiyalar vakillari jamlangani yurtimizdagi bag'rikenglik va totuvlikning yana bir ifodasi bo'ldi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida dunyodagi vaziyatga ham to'xtalib o'tdi. Aksariyat ziddiyat va mojaroalar aynan islom dunyosida sodir bo'layotgani afsus bilan qayd etildi.

Notinchlik o'choqlari istalgan paytda kengayib ketishi mumkinligi, musulmon mamlakatlarida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun birdamlik va islom ummati hamjihatligini yanada mustahkamlash har qachongidan ham dolzarb ekanini ta'kidlandi. Buning uchun, birinchi navbatda, yoshlarni yot g'oyalardan ta'siridan saqlash, ilm-ma'rifatga yo'naltirish e'tibor markazida turishi kerak.

Shu haqda gapirar ekan, Shavkat Mirziyoyev Bahouddin Naqshbandning "Qo'ling mehnatda, diling Allohda bo'lsin", degan o'g'itini yodga oldi. Yoshlarimizni mana shunday ruhda tarbiyalash, ularni mehnat va kasbga o'rgatish juda muhim ekanini ta'kidlandi.

Ayni kunlarda "Ramazon — saxovat, birdamlik va bag'rikenglik oyi" shiori ostida yurtimizdagi 9 ming 500 ga yaqin mahallalarda kam ta'minlangan oilalarda iftor-

lik dasturxonlari yozilib, ularning holidan xabar olindi. Bunday xayrli ishlar inson qadri uchun ulug'lash, pok maqsadli barcha yurtdoshlarimizni yanada birlashtirishga xizmat qiladi.

— Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, "Yaxshilarning ishi — yaxshilik qilishdir". Chindan ham, bu hayot aynan ezgulik va yaxshilik tufayli doimo yorug' va bardavomdir, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Niyatlar ijodat bo'ladigan muborak Ramazon oyida, Qadr kechasi arafasida turib, ezgu tilaklar aytiladi.

Qur'oni karimdan tilovat qilindi. Alloh taolodan butun dunyoda tinchlik, yurtimizda farovonlik, mehri-og'ibati barqaror bo'lishini so'rab, duolar o'qildi.

Yurtimizning barcha hududlarida o'tgan iftorlik tadbirlarida nuroniyalar, ziyolilar, turli din va konfessiyalar vakillari, nogironligi bor va ehtiyojmand kishilar, jami 60 mingga yaqin ishtirokchilar qatnashdi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING «KO'KSAROV» QARARGOHIDA O'TKAZILGAN IFTORLIK MAROSIMIDAGI NUTQI

Bismillahir rahmonir rahim.

Assalomu alaykum, muhtaram vatandoshlar, nuroniy otaxon va onaxonlar!

Qadri mehmonlar!

Ciz, azizlarni, butun xalqimizni, uzoq-yaqindagi jamiki musulmon ummatini davom etayotgan muborak Ramazon oyi bilan yana bir bor samimiy tabriklayman. Barchangizga tinchlik-xotirjamlik, sihat-salomatlik va farovonlik yor bo'lishini tilayman.

Ushbu sharofatli oyda go'zal diyorimizda mana shunday fayzli iftorlik marosimini el-yurtimiz bilan birgalikda o'tkazish nasib etgani uchun mehribon va qudratli Alloh taolaga behisob shukronalar aytamiz.

Fursatdan foydalanib, bugungi davramizda ishtirok etayotgan hurmatli mehmonlarimizga — xorijiy davlatlarning elchilari, xalqaro tashkilotlar vakillariga, diniy konfessiyalar rahbarlariga Vatanimiz va xalqimizga ko'rsatayotgan yuksak ehtirom va e'tiborlari uchun chin dilidan minnatdorlik bildiraman.

Aziz do'stlar!

Cizlarga ma'lumki, so'ngi yillarda milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ularni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha ko'p ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Bu borada "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezgu g'oya bizning faoliyat dasturimizga aylanmoqda. Shu asosda millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir vatandoshimizning huquq va manfaatlarini ta'minlash ijtimoiy hayotimizda yetakchi o'rinda chiqmoqda.

Fuqarolarimizning vijdon erkinligi sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlari to'liq ta'minlanayotgani bu yil Ramazon oyida yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Muqaddas dinimiz buyurgan xayrli amallar — ahilik va hamjihatlik, mehri-saxovat, sabru qanoat, axloq-odob, ilmu ma'rifati fazilatlarini jamiyatimizda tobora mustahkam bo'lib bormoqda. Xususan, islom dinining insonparvarlik mohiyatini chuqur o'rganish, buyuk tariximiz va madaniyatimiz durdonalarini, ulug' allomalarimizning boy merosini to'plash va keng targ'ib etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Ana shu ezgu maqsad yo'lida Toshkent shahrida buniyod etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi O'zbekistonda ilk bor amalga oshirilayotgan ulkan ilmiy-ma'naviy loyiha sifatida mamlakatimiz va xalqaro jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Ushbu markaz necha ming yillik taraqqiyot yutuqlarini o'zida mujassam etib, islom sivilizatsiyasi yurtimizda aynan ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'rifati asosida rivojlanganini tasdiqlaydi. Bu maskan biz uchun nafaqat o'tmish yodgorligi sifatida, balki xalqimiz, yoshlarimizni kelajak sari cholarishi, buyuk kashfiyotlarga ruhlantirishi bilan ayniqsa e'tibordir.

Xabaringiz bor, ulug' vatandoshimiz, hadis ilmining sultoni Imom Buxoriyning Samarqandda barpo qilinayotgan muazzam majmuasi qurilishi ham jadal davom ettirilmoqda. Bu yerda buyuk ajdodimiz hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan muzey va ilmiy dargohlar bilan birga, 10 ming kishilik masjid ham buniyod etilmoqda.

Nasib etsa, bu yil ana shu ikki muhtasham obidani — Islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy majmuasining ochilish marosimini barchamiz birgalikda tantanali ravishda o'tkazamiz.

Xalqimizning islom dini va falsafasiga qo'shgan bebaho hissasini yanada teran o'rganish maqsadida yaqinda yana bir muhim qaror qabul qildik.

Bu yil mutafakkir ajdodimiz, kalom ilmining buyuk peshvolaridan biri bo'lmish Imom Moturidiy hazratlari tavalludining 1155 yilligi keng nishonlaymiz. Jumladan, ul zotning Samarqanddagi muborak qadamjolari yanada obod qilinadi.

Eng muhimi, bu ishlarimiz Imom Moturidiy merosi va moturidiylik ta'limotini yurtimiz va xorijiy olimu ulamol bilan hamkorlikda ilmiy asosda o'rganishda yangi va katta qadam bo'ladi.

Hurmatli do'stlar!

Ko'p millatli jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, turli millat va din vakillari o'rtasida do'stlik va birdamlikni kuchaytirish vazifasi doimiy e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda.

Shu maqsadda joriy yilning sentyabr oyida Toshkent va Samarqand shaharlarida nufuzli xalqaro anjuman o'tkazamiz. "Deklaratsiyalar muloqoti forumi" deb nomlangan bu yirik tadbir 2022 yili Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida bo'lib o'tgan anjumaning mantiqiy davomi bo'lib, turli diniy e'tiqod vakillari o'rtasida o'ziga xos ma'rifiy muloqot maydoni bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda yana ta'kidlab aytmoqchiman: mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik — bizning eng katta boyligimizdir.

Ana shu beqiyos boylikni ko'z qorachig'idek as-

rash, yurtimizdagi do'stlik, tenglik, bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarni bundan buyon ham qat'iy davom ettiramiz. Buning uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni to'la safarbar etamiz. Bu masala hozirgi murakkab davrda biz olib borayotgan erkinlik va ochiqlik siyosati uchun ayniqsa o'ta muhimdir.

Muhtaram yurtdoshlar!

Yangi O'zbekiston yangicha ustuvor tamoyillarga, jumladan, Konstitutsiyamizda aniq belgilab qo'yilgan ijtimoiy davlat maqomiga ega bo'lib, xalqchil va insonparvar siyosat sivil bo'lmoqda.

Shu borada birgina misol keltirishga ijozat bergaysiz. O'tgan yilning o'zida ko'makka muhtoj insonlarga 16 trillion so'mlik moddiy yordam va nafaqalar berildi. Kam ta'minlangan oilalarga mansub 51 ming nafar bola bog'chaga joylashtirildi, ularning 176 ming nafar a'zosi tibbiy ko'mak ko'rsatildi, 182 ming nafari esa ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olindi.

"Saxovat va ko'mak" jamg'armasi orqali 94 mingga yaqin kam ta'minlangan oilalarga davolanish, oziq-ovqat, kiyim-kechak, kommunal to'lovlar bilan bog'liq 130 milliard so'mlik xarajatlar qoplab berildi.

"Ayollar dasturi" doirasida 3,5 million nafar opa-singillarimizga 5 trillion 700 milliard so'mlik yordam ajratildi.

"Yoshlar dasturi" joriy etilganidan buyon 1 million 300 ming nafar ehtiyojmand yoshlarga 1 trillion 700 milliard so'mlik ijtimoiy yordam ko'rsatildi.

Eng asosiysi, bu ishlarimiz izchil davom ettirilmoqda.

Qadri marosim ishtirokchilari!

Yangi O'zbekistonning ustuvor xususiyatlaridan yana biri — bu "yashil" taraqqiyot yo'lidir.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi ekologik makon barpo etilmoqda. "Yashil makon" umummilliy loyihasi aynan shu maqsadga qaratilgan.

"Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilingan joriy yilda amalga oshirilayotgan davlat dasturi ham bu borada muhim qadam bo'lmoqda.

Yaqinda Xiva shahrida ilk bor kengaytirilgan tarkibda o'tkazilgan Konfessiyalararo kengash majlisida yurtimizdagi diniy konfessiyalar vakillari mazkur davlat dasturida faol ishtirok etishga qaratilgan murojaatnoma qabul qildilar.

Albatta, jamiyatimizdagi ezgu ishlarda hurmatli din peshvolari, ulamo va nuroniyalarimiz, keng jamoatchiligimiz faol ishtirok etayotganini minnatdorlik bilan ta'kidlaymiz.

Bu yil "Yashil makon" loyihasi doirasida bahor mavsumining o'zida diniy soha xodimlari tomonidan 10 ming tupdan ziyod daraxt, 32 ming tupga yaqin gul ekilgan, masjid va ziyoratgohlarda 25 gektar yer obod qilindi ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Yurtimiz hojilarining ham ko'plab xayrli ishlarda shaxsiy namuna ko'rsatib, o'rnak bo'layotganlari albatta barchamizni xursand qiladi.

O'tgan yili muftiy Nuriddin Xoliqnazar hazratlari boshchiligidagi hojilarimiz "Yangi O'zbekiston fidoyisi bo'lib, ma'naviyat targ'ibotchisiga aylanamiz" degan tashabbusni ilgari surgan edilar. Shu kunga qadar ularning tashabbusi bilan kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, ehtiyojmand oilalarga 6 milliard 300 million so'm miqdorida moddiy yordamlar ko'rsatildi.

Bunday savobli ishlari uchun ularga barchamiz chin ko'ngildan tashakkur aytamiz.

Muhtaram vatandoshlar!

Hozirgi kunda dunyodagi vaziyat o'ta qaltis va murakkab bo'lib borayotganini hammamiz ko'rib-bilib turibmiz.

Afsuski, aksariyat ziddiyat va mojaroalar aynan islom dunyosida sodir bo'layotgani barchamizni chuqur tashvishga solmoqda.

Notinchlik o'choqlari istalgan paytda kengayib, butun-butun mintaqalarga yoyilib ketish xavfi tobora ortib bormoqda.

Musulmon mamlakatlarida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun birdamlik va islom ummati hamjihatligini yanada mustahkamlash har qachongidan ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

E'tiborimiz markazida turishi kerak bo'lgan yana bir masala — bu yoshlarimizning qalbi va ongini zaharlashga, hayotini izdan chiqarishga qaratilgan ko'plab tahdidlar bilan bog'liq. Farzandlarimizni ilm-ma'rifatga targ'ib etish, yot g'oyalardan ta'siridan saqlash borasida hurmatli imom-xatibalarimiz, ko'pni ko'rgan otaxon va onaxonlarimiz, mahalla faollari, hojilarimizning o'rni beqiyos, albatta.

Barchamiz sizlarning ushbu yo'nalishda olib borayotgan faoliyatini yuksak qadrlaymiz.

Buyuk Bahouddin Naqshband bobomizning "Qo'ling mehnatda, diling Allohda bo'lsin", degan o'g'itlari hammamizning hayotiy e'tiqodimizga aylanib ketgan.

Yoshlarimizni mana shunday ruhda tarbiyalashda ularni mehnat va kasbga o'rgatish juda muhim ahamiyatga ega.

Shu ma'noda, hurmatli nuroniyalarimiz, mahalla faollari, mirishkor fermerlarimiz, tadbirkorlarimiz yoshlarni halol mehnat qilib, oilasi va yurt farovonligi yo'lida tinimsiz izlanib yashashga o'rgatadilar, deb ishonaman.

Hurmatli do'stlar!

Ushbu fazilatli oy davomida yurtimizdagi 9,5 mingga yaqin mahallada kam ta'minlangan va ehtiyojmand oilalarda iftorlik dasturxonlari yozilib, xayr-saxovat ishlari amalga oshirildi.

Joylardagi bu tadbirlarda muftiy hazratlari va imom-xatibalarimiz ham xonadonma-xonadon yurib, faol ishtirok etishdi.

O'ylaymanki, "Ramazon — saxovat, birdamlik va bag'rikenglik oyi" shiori ostida o'tkazilgan bunday xayrli marosimlar inson qadri uchun ulug'lash, pok maqsadli barcha yurtdoshlarimizni yanada birlashtirishga xizmat qiladi.

Buyuk Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, "Yaxshilarning ishi — yaxshilik qilishdir". Chindan ham, bu hayot aynan ezgulik va yaxshilik tufayli doimo yorug' va bardavomdir.

Shu bois ezgu niyatlar ijodat bo'ladigan muborak Ramazon oyida, Laylatul qadr kechasi arafasida turib, yurtimizda, butun dunyoda tinchlik va farovonlik, mehri-og'ibati barqaror bo'lishini so'rab duolar qilamiz.

Iloym, hayotimiz doimo mana shunday munavvar, fayzli va barakali bo'lsin!

Duog'o otaxon va onaxonlarimiz sog'-omon bo'lsinlar!

Mehribon opa-singillarimiz, aka-ukalarimiz yonimizda doimo tog'dek tayanch bo'lib tursinlar! Farzandlarimiz bilimli, kasb-hunarli, azmu shijoatli yoshlar bo'lib, Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etsinlar!

Yurtimiz tinch, mehnatkash, oliyanob xalqimiz hamisha omon bo'lsin!

### Senat qo'mitasida

# OCHIQLIK VA SHAFFOFLIK – ADOLATLI YONDASHUV MEZONI

Oliy Majlis Senati Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasining majlisi bo'lib o'tdi. Unda senatorlar, Yoshlar parlamenti a'zolari, qo'mita huzuridagi ekspertlar guruhi vakillari, tegishli vazirlik va idoralar mutasaddilari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.



Majlisdagi Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida belgilab berilgan vazifalar ijrosi muhkamada o'tkazildi.

Ta'kidlanganidek, Prezident tashabbusi bilan joriy qilingan tizimli chora-tadbirlar, ochiqlik va shaffoqlik tamoyillari asosida amalga oshirilayotgan ishlar korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etayotir. Shu jihatdan, hududlarda jinoyatchilikning oldini olish maqsadida huquq-tartibot organlari, milliy kengash, senator va deputatlar tomonidan ishni hamkorlikda olib borish zarurligiga alohida urg'u berildi.

Yig'ilishda senatorlar tomonidan "Qisqoq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraq berish tartibining takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun

hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalari kiritish to'g'risida"gi Qonun mamlakatda yerga oid munosabatlarda tenglik va shaffoqlikni ta'minlashda muhim huquqiy asos bo'layotganligi ta'kidlandi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, yer va suv resurslarini taqsimlash jarayonlarida ochiqlikni ta'minlash, subsidiyalarni taqsimoti va tenderlarning shaffof o'tkazilishi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish masalalari muhkama qilindi. Cuv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanishni yo'lga qo'yish, davlat xaridlari jarayonlarini ochiq va raqobatbardosh mexanizmlar asosida olib borish, fermerlar hamda suvdan foydalanuvchilar uchun huquqiy maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish borasida ham fikrlasildi.

Yakunda ishtirokchilar tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalari asosida korrupsiyaga qarshi o'quv kurslari hamda treninglar tashkil etish, turli sohalarda korrupsiyaga qarshi kurashish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish va shaffoqlikni ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.

«Xalq so'zi».

# Kiberkorrupsiyaga qarshi «Yo'l xaritasi»

Oliy Majlis Senating Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi hamda Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi.

## Qo'shma yig'ilish

Unda davlat rahbari tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shu jumladan, kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy harakatlar rejasini qamrab olgan qo'shma "Yo'l xaritasi" va ishchi guruhi tarkibi tasdiqlandi. Ushbu hujjat kiber-

korrupsiyaga qarshi samarali kurashish, mustahkam huquqiy baza yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan loyihalarini amaliyotga joriy etish, yoshlar o'rtasida targ'ibot-tashvilot ishlarini olib borish va me-diakontentlarni tayyorlash kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ishchi guruhi faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha vazifalar yuqultildi. Agentlik huzurida Axborot-tahlil guruhi yo'lga qo'yilib,

u kiberkorrupsiyaga oid ma'lumotlarni jamlash, tahlil qilish va natijalarini Oliy Majlisga taqdim etish bilan shug'ullanadi.

Majlisdagi Yoshlar ishleri agentligiga "Korrupsiya – kelajakka tahdid" g'oyasi asosida yoshlar o'rtasida kiberkorrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish va samarali profilaktika tizimini ishlab chiqish yuzasidan takliflar tayyorlash vazifasi topshirildi.

Shuningdek, vazirlik va idoralarga "Yo'l xaritasi" doirasida belgilangan chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatlari bajarish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berildi.

Majlis yakunida muhkama etilgan masalalar bo'yicha parlament qo'mitalarining qo'shma qarori qabul qilindi.

«Xalq so'zi».

### Uchrashuv

# Hamkorlikning muhim yo'nalishlari ko'rib chiqildi

Kecha Oliy Majlis Senating Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari O. Mamatarimov Gruziyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi David Kotariya bilan uchrashdi.

Muloqot chog'ida O'zbekiston va Gruziya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar, jumladan, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va turizm sohasidagi aloqalar muhkama qilindi. Ayniqsa, turizm sohasida hamkorlikni mustahkamlashga qiziqish bildirildi, muxassislar tayyorlash va qo'shma sayohatlar tashkil etish bo'yicha tajriba almashish yuzasidan fikrlasildi.

Shuningdek, uchrashuvda 5 – 9 aprel kunlari Toshkentda Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi o'tkazilishi va unda 190 ga yaqin davlatlardan 2 mingga yaqin parlament a'zolari ishtirok etish xususida ma'lumot berildi. O'z navbatida, Gruziya parlamenti raisi Shaiva Papatshvili boshchiligidagi 14 nafar delegatsiya a'zosi ham mazkur anjumanda qatnashishi aytiladi.

Uchrashuvda D. Kotariya O'zbekiston keyingi vaqtlarda tez sur'atlarda rivojlanayotganini e'tirof etar ekan, mamlakat jadal demokratik islohotlar natijasida dunyoga ochilib, jahon hamjamiyatida o'zining munosib va mustahkam o'rni-ga ega bo'layotganini urg'uladi. Ayni chog'da bu Gruziyada ham yuksak qadriyatini ta'kidladi.

Yakunda muhkama etilgan masalalar bo'yicha hamkorlikni yanada kuchaytirishga kelishib olindi.

«Xalq so'zi».

# UMUMMILLIY TOTUVLIK, BIRDAMLIK VA HAMJIHATLIK KAFOLATI

19 mart kuni Prezidentimiz ikkita muhim hujjat – "Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarini mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon hamda uning ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasi

Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlar uushbu hujjatning ahamiyati, mazmun-mohiyati haqida o'z munosabatlarini bildirdi.

## Munosabat

### Teng huquq, imkoniyatlar ta'minlanadi

Viktor PAK, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

– Prezidentimizning "Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarini mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni o'z vaqtida qabul qilini-gani bilan ahamiyatlidir.

Mazkur hujjat O'zbekistonning ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyat sifatida o'ziga xosligini e'tirof etib, millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlash, chet eldagi vatandoshlarimiz bilan hamkorlikni kuchaytirish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

Farmonda xorijdagi vatandoshlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning O'zbekiston bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarini qo'llab-quvvatlash, investitsiyaviy va ijtimoiy loyihalarda qatnashishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi muhim vazifalar ham aks etgan, shubhasiz, xorijdagi vatandoshlarimizning O'zbekiston bilan aloqalarini yanada mustahkamlashga imkon beradi.

Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlarda bo'lib o'tadigan madaniy-ma'rifiy aloqalarini qo'llab-quvvatlash, investitsiyaviy va ijtimoiy loyihalarda qatnashishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi muhim vazifalar ham aks etgan, shubhasiz, xorijdagi vatandoshlarimizning O'zbekiston bilan aloqalarini yanada mustahkamlashga imkon beradi.

Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlarda bo'lib o'tadigan madaniy-ma'rifiy aloqalarini qo'llab-quvvatlash, investitsiyaviy va ijtimoiy loyihalarda qatnashishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi muhim vazifalar ham aks etgan, shubhasiz, xorijdagi vatandoshlarimizning O'zbekiston bilan aloqalarini yanada mustahkamlashga imkon beradi.

Mazkur hujjat O'zbekistonning ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyat sifatida o'ziga xosligini e'tirof etib, millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlash, chet eldagi vatandoshlarimiz bilan hamkorlikni kuchaytirish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

Farmonda xorijdagi vatandoshlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning O'zbekiston bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarini qo'llab-quvvatlash, investitsiyaviy va ijtimoiy loyihalarda qatnashishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi muhim vazifalar ham aks etgan, shubhasiz, xorijdagi vatandoshlarimizning O'zbekiston bilan aloqalarini yanada mustahkamlashga imkon beradi.



bir-damlik va ham-jihatlikni mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi.

Mazkur qo'mita millatlararo munosabatlar hamda xorijdagi vatandoshlar masalalari yo'nalishida davlat siyosatini olib boradi, vatandoshlar jamoalari va o'zbek diasporalarining milliy o'zligini saqlashga ko'maklashish hamda ularning ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatini Vatani rivojiga safarbar etishni qo'llab-quvvatlash kabi muhim vazifalarni amalga oshiradi.

Davlatimiz rahbarining Farmoni bilan umummilliy birdamlikni ta'minlash maqsadida har yili "O'zbekiston – yagona Vatani" shiori ostida yurtingizdagi barcha millat va elatlar vakillarining o'zaro tenglik, birdamligi, ularning yangi O'zbekiston taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi- ni e'tirof etuvchi anjuman tashkil qilishi belgilandi. Shuningdek, turli millat va elatlar vakillarining O'zbekiston tarixi va bugungi kundagi barqaror rivojlanishiga qo'shayotgan hissasi haqida filmlar va ko'rsatuvlar yaratilishi yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga kamarbasta bo'ladi. Tadbirkorlik platformalarini yaratish, jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlan-

### Daxldorlik tuyg'usi va bag'rikenglik

Guidana AVEZDURDIYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

– O'zbekiston ko'p millatli davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millatlar vakillari istiqomat qiladi. Ularning o'z tili, urf-odatlari,

an'analari, madaniy merosi, milliy o'ziga xosligini saqlab qolish va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

Shu o'rinda Prezidentimiz rahbarligida yangi O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivojiga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidlash joiz. Bu mamlakatda etnoijtimoiy taraqqiyot va barcha millat vakillarining birligi ta'minlanmoqda. Ana shu bag'rikenglik O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yilishi va mustahkamlanishida ijobiy ahamiyat kasb etyapti.

Darhaqiqat, mamlakatimizda umummilliy totuvlik, birdamlik, hamjihatlikni mustahkamlash, barcha fuqarolarga teng huquq va imkoniyatlar yaratish, ko'p millatli xalqimizning jonajon O'zbekistonimiz farovonligiga daxldorligini kuchaytirish, xorijdagi

vatandoshlar bilan aloqalarini rivojlantirish yo'nalishida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarning izchil ro'yobga chiqarilishini ta'minlash maqsadida davlatimiz rahbarining tegishli Farmoni hamda uning ijrosiga oid qarori qabul qilini-gani O'zbekistonda umummilliy totuvlikni ta'minlash va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarini mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishda muhim hujjatlar sanaladi.

Xususan, "Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarini mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahridagi ko'chalarda bitadan barcha millat hamda elatlarning madaniyati, urf-odatlari va an'analarini, o'zaro uyg'unlashgan millatlararo munosabatlarini ifodalaydigan "O'zbekiston madaniy bog'ligi" nomli ko'cha sifati-da tashkil etib belgilandi.

"Birgalikda kuchimiz" shiori ostida turli millat va elatlar vakillaridan iborat eko-volontyorlar ishtirokida ekologik

aksiyalarni o'tkazib borish orqali kun tartibidagi masalalarni hal etishda daxldorlikni anglash tuyg'ularini kuchaytirish kabi dolzarb takliflar mamlakatimizda turli millat va elatlar vakillarining O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarini mustahkamlashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha ham qator vazifalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasi BMT Taraqqiyot dasturining "Xorijdagi vatandoshlar orqali bilimlarni transfer qilish" (TOKTEN) dasturi namunasida xorijdagi vatandoshlarning yangi O'zbekiston iqtisodiy qadriga qo'shayotgan hissasi- ni yanada oshirish mo'ljallangan. Ya'ni innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan inson kapitali transferini amalga oshirish, bunda yuqori malakali mutaxassislarni barcha sohada sun'iy intellektni tatbiq etish uchun ta'lim, so'ng'ini saqlash tashkilotlariga, qisqoq xo'jaligi va xususiy sektor korxonalariga yo'naltirishga qaratilgan aniq tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni belgilash, shubhasiz, mazkur sohadagi islohotlar jarayonlarini yanada kengaytiradi.

Shu bilan birga, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarini mustahkamlashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha ham qator vazifalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasi BMT Taraqqiyot dasturining "Xorijdagi vatandoshlar orqali bilimlarni transfer qilish" (TOKTEN) dasturi namunasida xorijdagi vatandoshlarning yangi O'zbekiston iqtisodiy qadriga qo'shayotgan hissasi- ni yanada oshirish mo'ljallangan. Ya'ni innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan inson kapitali transferini amalga oshirish, bunda yuqori malakali mutaxassislarni barcha sohada sun'iy intellektni tatbiq etish uchun ta'lim, so'ng'ini saqlash tashkilotlariga, qisqoq xo'jaligi va xususiy sektor korxonalariga yo'naltirishga qaratilgan aniq tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni belgilash, shubhasiz, mazkur sohadagi islohotlar jarayonlarini yanada kengaytiradi.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasi BMT Taraqqiyot dasturining "Xorijdagi vatandoshlar orqali bilimlarni transfer qilish" (TOKTEN) dasturi namunasida xorijdagi vatandoshlarning yangi O'zbekiston iqtisodiy qadriga qo'shayotgan hissasi- ni yanada oshirish mo'ljallangan. Ya'ni innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan inson kapitali transferini amalga oshirish, bunda yuqori malakali mutaxassislarni barcha sohada sun'iy intellektni tatbiq etish uchun ta'lim, so'ng'ini saqlash tashkilotlariga, qisqoq xo'jaligi va xususiy sektor korxonalariga yo'naltirishga qaratilgan aniq tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni belgilash, shubhasiz, mazkur sohadagi islohotlar jarayonlarini yanada kengaytiradi.

# ODAMLARI HAYOTDAN ROZI YURT OBOD VA FAYZLI BO'LADI

Xalqimiz hayotini yaxshilash, farovonligini oshirish, fuqarolarning nafaqat ertaga, balki bugunidan rozi bo'lishiga erishish amaldagi islohotlarning bosh maqsadiga aylangan. Ana shu ezu-gu niyatni ro'yobga chiqarishda muhim omil bo'lgan Harakatlar va Taraqqiyot strategiyalari kabinetlarida emas, balki mamlakatning eng chekka hududlarida turli kasb egalari bilan bevosita muloqotda bo'lib, yutuq va kamchiliklar, mavjud muammolar bilan chuqur tanishib, odamlarning fikr-mulohazalarini tinglab yaratiladi.

## Taraqqiyot mezonlari

Xalq bilan hamfikr, hamnafas yaratilgan Harakatlar strategiyasida belgilangan chora-tadbirlar muvaffaqiyatli bajarildi. Taraqqiyot strategiyasida nazarda tutilgan vazifalar ham izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu esa xalqning dunyoqarashini, tafakkurini o'zgartirib, davlatga bo'lgan ishonchini qayta tikladi.

Butun mamlakatimizda bo'lgani kabi bunday ezu-gu-amallar Surxon zaminida ham muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda. Xususan, so'nggi ikki yilda Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi amaliy choralar natijasida yalpi hududiy mahsulot hajmi 106,1 foizga, sanoat ishlab chiqarish – 111,0, qirish ish-lari – 108,5, qisqoq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish – 103,8, xizmatlar hajmi esa 117,9 foizga oshdi.

Yangi ish o'rinlarini yaratish, aholini tadbirkorlikka jalb etish masalalariga ham alohida e'tibor berilib, oxirgi ikki yilda 8 mingga yaqin tadbirkorlik subyektlari ochildi va ish-zi-lik darajasi 7,4 foizdan 6,1 foizga qisqardi.

Prezidentimiz iqtisodiy taraqqiyotning asosi sifatida "Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy bo'ladi" degan g'oyani ilgari surdi. Tan olish kerak, ushbu g'oyaning in'ikosini od-diy kishilar tafakkurida ham aks sado berib, yurdoshlarimiz harakat qilsa, chunon natija-ga erishish mumkinligiga ishonch hosil qila boshladi. Natijada asrlar davomida ish-bi-larmonligi, omilkorligi bilan dunyoni hayrat-ga solib kelgan xalqimizning o'tgan davrda deyarli yo'q qilingan salohiyati yana qayta tiklana boshladi.

Davlatimiz rahbarining vazirliklar va hokimliklar ish vaqtining kamida 50 foizi-ni tadbirkorlik muammolarini o'rganish va ularga yordam berishga sarflashi lozimligi haqidagi talabi tadbirkorlar va boshqaruv organlari o'rtasida ko'prik vazifasini o'tay boshladi. Natijada bir paytlar tadbirkorlarni quvg'in qilishda faol bo'lgan rahbarlar bugun ularning eng yaqin yordamchisiga aylandi.

Surxondaryo viloyatida so'nggi ikki yilda qiymati 16,3 trln. so'mlik 1 765 ta investitsiya loyihasi ishga tushirildi hamda 28 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. 1,2 mlrd. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi.

Yaqin-yaqin yillargacha asrlar davomida bir-biri bilan qon-qardosh bo'lib yashagan, xalqa-anda bo'lgan, ildizi, o'tmishi bir bo'lgan qadrlar hatto bir-birining to'vu ma'rakasiga ham bora olmay qolgandi. Ammo Prezidentimizning ochiq va pragmatik siyosati bunga barham berdi. Qo'shnilar bilan ili-q munosabatlari yo'lga qo'yildiki, buning samarasi o'ta-roq birgina Surxondaryo viloyati hokimligi delegatsiyasining o'ndan ortiq xorijiy davlat-larga tashrifi amalga oshirilib, 50 ga yaqin investitsiya va savdo hamda ijtimoiy-madaniy kelishuvlarga erishildi. Natijada bir qancha ishlab chiqarish obyektlari ochildi va yirik loyihalar ijrosi ta'minlandi.

Harakatlar va Taraqqiyot strategiyalari-da ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quv-vatlash va kambag'allikni bartaraf qilish dav-lat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Bu siyosat barpo etilayot-gan xalqparvar va adolatlari yangi O'zbeki-stonning eng asosiy xususiyatlaridan biriga aylandi.

Ayonki, yaqin o'tmishda aholining uy-jo-ga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalasi ham o'z holiga tashlab qo'yilgan edi. Natijada ming-minglab uy-joy-siz oilalar paydo bo'ldi. Surxondaryoda ham bu muammoni ijobiy hal qilish uchun aholiga arzon va sifatlari uy-joy qurishga juda katta e'tibor qaratilyapti. 2017 – 2025 yillarda viloyatimizda misli ko'rilmagan miqyosda bunyodkorlik ish-lari amalga oshirildi. Aholining uy-jo-ga bo'lgan talabini qondirish maqsadida 165 ta ko'p qavatli uy-joy foydalanishga topshirildi. 60 ming nafar navqiron avlod vakili va 134 ming nafar xotin-qizga turli amaliy yordamlar ko'rsatildi. Xususan, uy-jo-ga muhtoj 130 nafar ayolga boshlang'ich to'lovlar to'lab berildi. Bundan tashqari, tadbirkor-homiy tomonidan Sherobod tumanidagi uy-joysiz 100 nafar ayolga bepul xonadonlar berildi.

Prezidentimizning ta'lim tizimida amalga oshirayotgan islohotlari Surxon zaminida ham o'z aks sadosini bermog'da. Maktab-gacha tarbiya, o'rta va oliy ta'lim tizimlari, jumladan, ularni boshqarish organlari tub-dan o'zgartirildi. Bog'cha qurayotgan tadbirkorlarga yer ajratish va kredit berishda katta imtiyozlar taqdim etildi. Yuzlab maktabgacha

ta'lim tashkilotlari barpo qilindi. Viloyatda Prezident maktablari, iqtidori yoshlar mak-tablari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda eng muhim yo'nalish-lardan sanalgan turizmni rivojlantirish masalasi ham e'tibordan cheltda qolayotgani yo'q. Xususan, so'nggi ikki yilda viloyatga bir milliondan ortiq xorijiy turistlar jalb etil-gan bo'lsa, ichki sayohatchilar soni 3,5 mil-lionga yetdi. Turizm xizmatlari eksporti 140 mln. dollari tashkil qildi. 45 ta mehmonxona va xostel barpo etildi. 16 ta madaniy meros obyektida restavratsiya va qazish-o'rganish ish-lari amalga oshirildi.

Viloyatga kelayotgan turistlarga qulay infratuzilma yaratish maqsadida oxirgi ikki yilda 23 ta madaniy meros obyekti-ga olib boruvchi 73 km. yo'lining holati yaxshilandi.

Bular zaminida bir narsa – odamlarni rozi qilish, ularning yillar davomida to'planib qol-gan muammolariga yechim topish kabi ezu-gu amal yotadi. Bu esa o'z-o'zidan bo'ladi-gan narsa emas. Buning uchun butun tizim, mas'ullar pastga, oddiy odamlar oldiga tush-ishi va ularning dard-hasratlarini o'z qulo-qlari bilan tinglashi lozim. Shu maqsadda o'tgan davr mobaynida hududlarda 30 dan ortiq sayyor va onlayn qabullar o'tkazilib, aholi muammolarini tizimli hal qilish natija-sida fuqarolar murojaatlari 18 foizga kamaydi.



Bunga davlat va xalq o'rtasidagi bog'lovchi bo'lgan sifati-da senatorlar hamda mahalliy Kengashlar deputatlari ham o'z hissasi-ni qo'shib kelmog'da. Xususan, Senat yalpi majlisi kun tarti-blariga kiritilgan qonunlar bo'yicha o'tkazil-gan muhkamalarda 80 ta qonun loyihasi muhkama etilib, ular bo'yicha 150 dan or-tiq takliflar berildi. Qabul qilingan qonunlar yuzasidan 400 dan ortiq targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.

Deputatlar hukumat e'tiborida bo'lgan, xalqni o'ylantirayotgan masalalarni hal etish-da, aholi bilan ochiq muloqotlar tashkillasht-irishda mutasaddi tashkilot vakillari bilan hamkorlikda faoliyat olib borayotir.

So'ngi yillarda eng ko'p – 8 933 marotaba takroran xat yo'lga'nin 69 nafar fuqaroning murojaati mazmun o'rganildi. Viloyat Xalq qabulxonasi, deputatlar, viloyat hokimligi va tashkilotlar rahbarlari ishtirokida tashkil etil-gan qabullarda fuqarolarning muammolari hal qilinib, qonuniy yechim topdi.

Yangi O'zbekistonda xalqni rozi qilish barcha rahbarlarning eng ustuvor vazifasi, xalqning ishonchini, mehrini qozonish esa eng oliy soadatlari. Yangi O'zbekistonda qur-ishdek ulug' maqsad yo'lda barchamiz ba-hamijhat ishlashimiz talab etiladi.

Dilbar SUVONOVA, Oliy Majlis Senati a'zosi, Surxondaryo viloyati Xalq qabulxonasi mudiri.



ma'qullaymiz va albatta ularda faol ishtirok etamiz.

Farmonda xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarini mustahkamlashning yangi mexanizmlarini joriy qilish ilgari surilmoqda. Jumladan, undan xorijdagi vatandoshlar va diaspora vakillarining mamlakatimiz kapital bozoriga investitsiyalarni kiritishni rag'batlantirish, ularning xayriya pul mablag'larini ijtimoiy foydali va maqsadli loyihalarni moliyalashtirishga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirish hamda O'zbekiston turizmini rivojlantirish vazifalari o'rinni olgan.

E'tiborsiz, jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ekologik barqarorlik, sifatlari ta'lim masalalarida o'zaro fikr-mulohaza almashish maqsadida ekspertlik va ilmiy doiralarda vakillari hisoblangan xorijdagi vatandoshlarning doimiy muloqoti ko'rinishida "Uz Global Think" forumini o'tkazish va unda ilgari surilgan fikrlar asosida mamlakatimizning barqaror rivojlanish maqsad va vazifalariga xizmat qiluvchi takliflarni hukumatimizga kiritib borish belgilanmoqda.

Shubhasiz, mazkur Farmon ijrosi mamlakatimizda umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarini mustahkamlaydigan hamda ko'p millatli xalqimizning jonajon O'zbekistonimiz farovonligiga daxldorligini kuchaytiradi.

«Xalq so'zi».

# O'ZBEKISTON - FRANSIYA: AZALIY DO'STLIKNING YANGI ISTIQBOLLARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 11 - 13 mart kunlari Fransiya Respublikasiga amalga oshirgan davlat tashrihi chinakam tarixiy voqea bo'ldi. O'zbekiston yetakchisiga yuksak ehtirom ko'rsatilib, ulug'vor kutub olish marosimi uyushtirildi. Zero, kamdan-kam hollarda va o'ta qadri do'st mamlakatlar rahbarlarining kortejarlariga Fransiya faxriy otiqlar gvardiyasi kuzatuvida harakatlanadi.

Aytish lozim bo'lgan yana bir muhim jihat - har ikki tomonning samimiyati. Fransuzlar 2018 yildan boshlab Shavkat Mirziyoyev va Emmanuel Makron o'rtasida shaxsiy, samimiy, o'zaro ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlarni o'rnatganini e'tirof etib keladi. Ana shu omilning o'ziyoq "Nega Fransiya?" yoki fransuzlar tomonidan "Nega O'zbekiston?" degan ehtimoliy savolga javob bo'la oladi.

Yaqindagina, aniqrog'i, o'n yilcha avval Yevropaning, jumladan,

Fransiyaning eng kichkina shirkati ham O'zbekistonga nafaqat to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritish, balki qo'shma korxonaga ulush qo'shish uchun ham "suveren kafolat", ya'ni Prezident imzo chekkan kafolatni talab qilardi. Xalqaro va milliy iqtisodiy tahlilchilar yakdillik bilan tan olayotgan birgina dadil qadam - so'mning erkin konvertatsiyasi joriy etilishi bilan hamma narsa hal bo'ldi. Tashrif natijalariga ko'ra, quyosh va shamol elektr stansiyalari, avtomobilsozlik, yirik shaharlarni ichimlik suvi bilan ta'minlash, sunni tejash va qayta ishlab, tozalash, elektr tarmoqlarini optimallashtirish, tog'-kon sanoati, mutaxassislar tayyorlash va boshqa qator sohalarga Fransiya tomonidan katta miqdordagi investitsiya mablag'lari kiritishini e'lon qildi.

Bunda, albatta, investorlar uchun so'nggi yillarda O'zbekistonda yaratilgan sharoitlar, berilayotgan imtiyozlar bilan bir qatorda, bizga - O'zbekistonga, uning Prezidenti va xalqiga ishonch katta rol o'ynamoqda.

birga, mamlakat iqtisodiyotining Yevropa Ittifoqi iqtisodiy maydoniga integratsiyasini tezlashtirish uchun sharoit yaratadi. O'zbekistonda energetika, infratuzilma, atrof-muhitni muhofaza qilish, aviatsiya, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va turizm sohalarida o'z tajribasini olib kirayotgan "Orano", "SUEZ", "Veolia", "Total Energies", "Volitalia", "EDF", "Lactalis", "Airbus", "MND" kompaniyalari xalqaro miqyosda taniqli va ishonchli hamkorlar hisoblanadi.

Strategik sheriklikning yana bir muhim tarkibiy qismi - madaniy-gumanitar sohada ham yangi istiqbolli rejalar belgilandi. Joriy yilda Toshkentda O'zbekiston - Fransiya universiteti ochiladi. Mazkur oliy o'quv yurti va ilmiy tadqiqotlar muassasasida kadrlarni tayyorlash xalqaro standartlar asosida, fransiyalik yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda olib boriladi.

O'zbekistonda fransuz tilini o'qitishni kengaytirish hamda mutaxassislar va talabalar almashuvini ko'paytirish borasida qator hujjatlar imzolandi. Ushbu sohada Toshkent va Samarqandda faoliyat yuritayotgan "Fransuz alyansi" faoliyatiga alohida urg'u beriladi.

Shuningdek, O'zbekiston madaniy merosini asrash va targ'ib qilish, Fransiya madaniyati bilan yurtdoshlarimizni yaqindan tanishtirish yo'lida olib borilayotgan hamkorlik yanada kengayadigan bo'ldi. Joriy yilda Nukus shahridagi I. Savitskiy nomli davlat san'at muzeyida saqlanayotgan Markaziy Osiyo avangard rassomlarining asarlari jamlamasi Fransiya poytaxtida namoyish qilinadigan bo'ldi. O'zbekiston Madaniy merosi jamg'armasi mutasaddilari fransiyalik hamkorlar bilan tegishli kelishuvga erishdi.

Va nihoyat, kulminatsiya nuqtasi - Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishdagi alohida xizmatlari uchun Fransiya oliy milliy mukofoti - Faxriy legion ordeni bilan taqdirladi. 1802 yilda ta'asis etilgan ushbu orden alohida xizmatlarning davlat darajasida e'tirof qilinishi va shon-sharafning eng yuqori belgisi hisoblanadi.

O'zbekistonliklar an'anaviy ravishda Fransiya, fransuzlarga, ushbu buyuk mamlakat madaniyatiga alohida qiziqish va muhabbat bilan qaraydi. Parij va boshqa shaharlarda joylashgan mashhur muzeylar, kutubxonalar, tarixiy saroylar va qasrlarda saqlanayotgan jahon madaniyati durdonalari orasida bizzning ham madaniy merosimizga oid osoriyotlarning borligi ma'lum. Fransiya madaniy merosi aqsholari bilan bir qatorda ular ham ko'z qorachig'idek asrab kelinmoqda. Tabora ko'proq o'zbek sayyohlari Parijga tashrif buyurarkan, albatta, Luvrga, u yerda Mona Liza surati, Venera haykali bilan bir qatorda "Markaziy Osiyo bo'limi"dagi Temur va temuriylar davri san'ati javohirlarini ko'rishga oshiqadi.

Shubhasiz, go'zal Parij ramzi - Eyfel minorasi ekanini maktab o'quvchilargacha bilishadi va uni ko'rish orzusida yuradi. Biz Parij mumtoz va zamonaviy musiqasi hamda go'shig'larini, filmlarini, pyesalarini va operalarini sevamiz, qiziqish bilan tomosha qilamiz. O'zbekistonliklar Volter, Gyugo, Dyuma, Balzak, Zolya, Mopassan asarlarini, Sharl Perro tomonidan qo'zg'atgan tushirilgan "Qizil qalpoqcha" va "Uyqudagi go'zal" e'taklarini yaxshi biladi, sevib o'qiydi.

Fransuzlar ham kitobsevar xalq. Yozuvchi Amin Maalufning "Samarqand" romani paydo bo'lganiga qariyb 40 yil bo'ldi va go'zal yurtimiz durdonasini yanada mashhur qilib yubordi. Fransuzlar Alisher Navoiy g'azallari, Boburning "Boburnomasi", Amir Temurning "Tuzuklari"ni o'z tillarida o'qish imkoniyatiga ega.

## Nigoh

### Shonli tarix va buyuk salohiyat

Xo'sh, fransuzlarning o'zlarini kim? Fransiya qanday davlat?

Qadimda "Galliya" deb atalgan an'analariga ega bu mamlakat qariyb 4 ming yillik tarixga ega. Eramizning birinchi yuz yilligidan qadimgi Rim imperiyasi tarkibiga kirgan mamlakat O'rta asrlarda inkvizitsiyani, diniy to'qnashuvlar va qirg'inlarni (katoliklar va protestantlar o'rtasida), feodal tarqoqlik, O'rta asrlar Angliyasiga qaralik, qator urushlarni boshidan o'tkazdi. XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning boshlariga kelib "Quyosh qirol" deya sharaflangan monarx Lyudovik XIV sa'y-harakati tufayli feodal tarqoqlikka bir qadar chek qo'yildi.

Mamlakat 1789 va 1848 yillarda inqiloblarni boshdan kechirdi. 1789 yilda monarxiya ag'dariib, qirollik hokimiyatiga chek qo'yildi. "Ozodlik, tenglik, birodarlik" so'zlarini o'sha davrlardan boshlab Fransiyaning shiori, otashin shoir va kompozitor Ruje de Lil yaratgan "Marselyeza" esa mamlakat gimni bo'lib qoldi.

Fransiya yetakchiligi barobarida, uning nomini yanada mashhur qilgan tarixiy shaxslar orasida, albatta, imperator Lui Bonapart Napoleoni eslamaslikning iloji yo'q. U olib borgan harbiy harakatlar bosqinchilik urushlari sanalsa-da, Napoleonning buyuk sarkarda va davlat arbobi bo'lganini hech kim inkor eta olmaydi. Shu o'rinda u buyuk ajdodimiz Amir Temurning harbiy san'atini, xususan, 1402 yilda Yildirim Boyazid qo'shinlariga qarshi bo'lib o'tgan mashhur Anqara jangi tajribasini sinchiklab o'rganganini to'g'risida tarixiy ma'lumotlar borligini aytib o'tish joiz.

Fransiya Amerika qit'asiga barchinildan bo'lib borib, u yerda koloniyalar tashkil qilgan. Kanadaning Kvebek viloyati yoki AQShning Luiziana shtatida hali ham fransuz tilida so'zlashiladi. Shuningdek, shimoliy va g'arbiy Afrika, Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari ham Fransiya tobe bo'lgan.

Parlament respublikasi boshqaruvining amalga kiritilishi, koloniyalardan keltirilayotgan moddiy boyliklar, qulay tabiiy shart-sharoit, xususiy mulkning daxsizligi, tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin mamlakatning har tomonlama taraqqiy etgan yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga sharoit hozirladi.

Fransiya haqli ravishda jahon madaniyati markazi hisoblanadi. O'z tarixi davomida mamlakat ilm-fan, adabiyot va san'at sohalarida Uyg'onish davri, Ma'rifatchilik asri, shuningdek, romantizm, tanqidiy realizm, kubizm, abstraksionizm kabi bosqichlarni boshidan o'tkazdi. Olim va muhandislar - Rene Dekart, Blez Paskal, Andre-Mari Amper, Pyer Kyuri, Anri Lerish, aka-uka Lyumyerlar, Gyustav Eyfel, haykaltaroshlar - Roden, Domye, Loran, Burdel, Baro, rassomlar - Delakrua, Pussen, David, Gogen, Bonnar, Latur, Mone, Mane, Sezan, yozuvchi va shoirlar - Bomarshe, Perro, Jyul Vern, Viktor Gyugo, Aleksandr Dyuma, Stendal, Onore de Balzak, Emil Zolya, Gi de Mopassan, Rembo, Pol Elyuar, Antuan de Sent-Ekzyuperi, Andre Jid, Jan-Pol Sartr kabi buyuk daholar jahon fani, san'ati va adabiyotining javohirlari hisoblanadigan kashfiyotlar va asarlar yaratdi.

1625 yilda kardinal Rishelyening qo'llab-quvvatlashi bilan Fransiya akademiyasi tuzildi. 1637 yilning 10 iyulida Luvrda uning birinchi majlisi bo'lib o'tdi. Fransuz tilini nafaqat jozibali, balki barcha san'at turlari va ilm-fanni ifodalay olish darajasiga ko'tarish Fransiya akademiyasining asosiy vazifasi qilib belgilandi. Akademiya tuzilganidan buyon uning a'zolari soni 40 nafardan oshgani yo'q. Akademiya a'zolarini Rishelyening taklifiga ko'ra "barhayotlar" deb atashadi. Akademiya a'zolaridan kimdir vafot etsagina, uning o'rniga yangi a'zo tayinlanadi. Fransuz

tilining dunyodagi yetakchi tillardan biriga aylanishida, XIX asrning oxiriga qadar jahon diplomatiyasi tili bo'lib kelishida, Fransiya beqiyos badiiy asarlar yaratilishida, qolaversa, tilning salohiyati, boyligi va sofigini saqlashda mazkur akademiyaning xizmatlari beqiyosdir.

Bundan tashqari, 1666 yilda Lyudovik XIV farmoni bilan Fransiya Fanlar akademiyasi tuzilgan. Uning asosiy vazifasi olimlarni yangi kashfiyotlarga ilhomlantirish va ularni ijtimoiy himoya qilishdan iborat. Hozirgi kunda akademiyaning 150 ta a'zosi, 120 ta xorijiy mamlakat vakillaridan a'zolar va 300 ta muxbir a'zosi bor.

IX - XVI asrlarda jahonda ro'y bergan islom dini va tamadduni bilan bog'liq hodisalar Fransiya sharqshunoslik fanining shakllanishiga sabab bo'ldi. 1142 yilda Klyuni monastiri rohibi Pyer hazratning ko'rsatmasi bilan Qur'onni karim lotin tiliga tarjima qilindi. Keyinroq ayrim hadislar va payg'ambarlar tarixi ham lotin tiliga o'girildi. Ushbu tarjimalar islomshunoslik va sharqshunoslikning rivojlanishiga asos yaratdi. To'plangan barcha ma'lumotlar asosida fransuz sharqshunosi d'Erbelo (1625 - 1695) o'zining mashhur "Sharq kutubxonasi" qomusini yozdi. Fransuz

mobaynida ikki tomonlama aloqalar, asosan, madaniy merosni o'rganish, turizm sohalari bilan cheklanib kelindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yilda Fransiya dastlabki tashrifidan boshlab ikki tomonlama hamkorlik yangi darajaga ko'tarildi. Ikki davlat rahbarlari o'zaro ishonch, hurmat va samimiyat poydevori ustiga hamkorlik binosini qurishga kirishdilar. 2022 yilning noyabr oyida Prezidentimiz Parijga ikkinchi rasmiy tashrifini amalga oshirdi. Tashrif jarayonida Luvr muzeyi va Arab olami institutida "O'zbekiston vohalarining mo'jizalari. Karvon yo'llari cho'rhasida" va "Samarqandga yo'l. Ipak va oltin mo'jizalari" ko'rgazmalari ikki mamlakat rahbarlari ishtirokida ochildi. 2023 yilning noyabr oyida Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron rasmiy tashrif bilan Samarqandga keldi. Davlat rahbarlari savdo-iqtisodiyot, innovatsiya, investitsiya va madaniy-gumanitar sohalarida hamkorlikni kengaytirish masalalarini muhokama qildilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiya shu yil mart oyidagi davlat tashrifi esa o'z natijalari va ko'lami bilan O'zbekiston - Fransiya hamkorligining yangi bosqichi uchun

**“Fransiya haqli ravishda jahon madaniyati markazi hisoblanadi. O'z tarixi davomida mamlakat ilm-fan, adabiyot va san'at sohalarida Uyg'onish davri, Ma'rifatchilik asri, shuningdek, romantizm, tanqidiy realizm, kubizm, abstraksionizm kabi bosqichlarni boshidan o'tkazdi. Olim va muhandislar - Rene Dekart, Blez Paskal, Andre-Mari Amper, Pyer Kyuri, Anri Lerish, aka-uka Lyumyerlar, Gyustav Eyfel, haykaltaroshlar - Roden, Domye, Loran, Burdel, Baro, rassomlar - Delakrua, Pussen, David, Gogen, Bonnar, Latur, Mone, Mane, Sezan, yozuvchi va shoirlar - Bomarshe, Perro, Jyul Vern, Viktor Gyugo, Aleksandr Dyuma, Stendal, Onore de Balzak, Emil Zolya, Gi de Mopassan, Rembo, Pol Elyuar, Antuan de Sent-Ekzyuperi, Andre Jid, Jan-Pol Sartr kabi buyuk daholar jahon fani, san'ati va adabiyotining javohirlari hisoblanadigan kashfiyotlar va asarlar yaratdi.**

sharqshunoslarining bir necha avlodi ana shu asarga tayanib o'z tadqiqotlarini amalga oshirdi. "Sharq kutubxonasi"ga Alisher Navoiy, Samarqand, Buxoro, Movarounnahr to'g'risida ma'lumotlar ham kiritildi. 1697 yilda chop etilgan "Sharq kutubxonasi" qomusining asl nusxalaridan biri Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonada ham saqlab kelinmoqda.

Birinchi jahon urushi davrida Fransiya Antanta Ittifoqi, Ikkinchi jahon urushida esa Ittifoqchi kuchlar tarkibiga kirdi. Mamlakat 1945 yildan keyin Yevropaning birlashishi jarayonlarida va Yevropa Ittifoqining shakllanishida bosh-qosh bo'ldi. Hozirgi kunda iqtisodiy, madaniy, harbiy va siyosiy jihatlar bo'yicha qadratlil davlat hisoblanadi. Fransiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi o'laroq jahonda va Yevropada tinchlik, xavfsizlik va hamkorlik, mamlakatda demokratiya va inson qadri tamoyillarini ta'minlash, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatni yanada rivojlantirish yo'lida siyosat olib bormoqda.

### O'zaro ishonchga asoslangan azaliy aloqalar

Sohibqiron Amir Temur va Fransiya qiroli Karl VI o'rtasidagi diplomatik yozishmalar boshlab bergan ikki davlat va xalqlar o'rtasidagi hamkorlik uzoq yo'lni bosib o'tdi. Dastlab Amir Temur, keyinchalik Shohruh boshchiligidagi temuriylar saltanati bilan savdo aloqalari yo'lga qo'yildi. O'rta asrlardan boshlab fransiyalik sayyohlar va tadqiqotchilar Movarounnahrni o'rgana boshlaganlar. Amir Temur "Tuzuklari" tarjima qilinganiga 100 yildan, "Boburnoma" tarjimasiga 60 yildan oshdi. Biroq yillar

asos yaratdi. Ikki davlat yetakchilari xalqaro vaziyat va xavfsizlik, xalqaro maydonda o'zaro qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ilg'or texnologiyalar, iqtisodiyot, muqobil energetika, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim va madaniyat sohalaridagi hamkorlik masalalarini muhokama qildilar. Muzokaralar natijalariga ko'ra umumiy qiymati 6,5 mlrd. yevroga teng keladigan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha 20 dan ortiq kelishuv va shartnomalar imzolandi.

Tashrif doirasida ikki mamlakat o'rtasida strategik sheriklik munosabatlari o'rnatish to'g'risidagi deklaratsiyaning imzolaniishi ushbu jarayonning muhim natijasi bo'ldi. Mazkur asosiy hujjat O'zbekistonning xalqaro munosabatlarda tobora faol rol o'ynashi bilan

O'zaro madaniy almashinuvga alohida e'tibor va o'zbeklarning fransuz adabiyotiga bo'lgan muhabbat tasdiqi sifatida O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev Fransiya yetakchisi Emmanuel Makronga Fransiya mumtoz adabiyoti darg'alaridan biri Viktor Gyugoning mashhur "Kulayotgan odam" romanining o'zbek tiliga tarjimai ilk nusxasini topshirdi.

Shu o'rinda maqola muallifi ko'pyillik orzusini oshkor qilishni ep ko'rmoqda: Go'zal Parijning yana bir o'ziga xos ramzlaridan biri - Sena qirg'oqlariga joylashgan bukinistlar - kitob sotuvchilari. Mana, bir necha asrdan buyon bukinistlar ertalabdan kelib peshtaxta vazifasini o'tovchi yog'och qutillarini ochib Sena qirg'og'i bo'yab, asosan, eski kitoblar savdosi bilan shug'ullanadilar. Siz bu yerdan, juda arzon baholarda, eski kitoblar, darsliklar, mashhur insonlarning dastxatlarini, pochta suratlari va boshqalarni xarid qilishingiz mumkin. Vaqti kelib, tobora obodonlashib borayotgan Anhor bo'ylarida Toshkent bukinistlari joylashtirilsa, ma'rifatparvar xalqimiz va poytaxtimizning ramzlaridan biriga aylanardi, deb ishonamiz.

Mamlakatimiz rahbarining Parijga davlat tashrifi har ikki tomon manfaatlariga xizmat qiluvchi ulkan natijalar bilan yakun topdi. Ushbu tashrif mustaqil, yangi O'zbekistonning ochiqlik va o'zaro ishonchga, samimiyatga asoslangan tashqi siyosatining yaqqol ifodasidir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

**Shoazim MINOVAROV,**  
**«Toshkent Fransuz alyansi» raisi,**  
**O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.**

# SPORT

## xabarlar

### Jahon chempionatiga bir qadam qoldi

Futbol bo'yicha AQSh, Kanada va Meksika yashil maydonlarida uyushtiriladigan "Jahon chempionati - 2026"ga yo'llanma olish uchun Osiyo qit'asining 3-saralash bosqichi 8-tur uchrashuvlari doirasida O'zbekiston milliy terma jamoasi safarda Eron terma jamoasiga qarshi maydonga tushdi.



Qiziqarli va murosasiz kechgan uchrashuvda 2:2 hisobi qayd etilib, jamoalar bir ochkodan bo'lishib oldi. T. Kapadze murabbiyligidagi futbolchilarimiz bahsni ketma-ket hujumlar bilan boshlagani tufayli 1-bo'limning 16-daqiqasida hisobni ochdi. Golga H. Erkinov mualliflik qildi. Bahsning 2-bo'limi yanada shiddatli kechib, ikkala jamoa ham yuqori mahorat bilan raqib darvozasi tomon zarbalar yo'lladi. Eronliklardan M. Taremi dubl qayd etgan bo'lsa, A. Fayzullayev vakillarimizning yana bir golini jarima zarbasidan urdi. Mazkur durandagan so'ng Eron terma jamoasi "JCH - 2026" yo'llanmasini qo'lga kiritdi. 17 ochko jamg'argan O'zbekiston terma jamoasi shu bosqichning o'zidayoq mundial chiptasiga ega bo'lish uchun o'z imkoniyatlarini oshirib oldi.

Saudiya Arabistoni maydonida kechgan KXDR - BAA bahsi 1:2 natijasi bilan tugadi.

Guruhimizdagi Qirg'iziston - Qatar uchrashuvi 3:1 hisobi bilan yakunlandi. Mazkur natijadan so'ng ikki jamoa ham saralashning navbatdagi bosqichida qatnashish uchun kurashni davom ettiradi.

### Hamyurtimiz «Katta dubulg'a» turniri chempioni

Gruziyaning Tbilisi shahrida dzyudo bo'yicha "Katta dubulg'a" turniri o'z yakuniga yetdi. Quvonarlisi, 90 kilogrammgacha vazn toifasida kechgan bahslarda hamyurtimiz Umar Bozorov oltin medalini qo'lga kiritdi.

Olimpiada va jahon chempionati sovrindorlari jam bo'lgan mazkur vaznda yosh umidi polvonlarimizdan Umar Bozorov o'zining betakror ishtiroki bilan yaqqol ajralib turdi. Finalda esa u fransiyalik raqibidan ustun keldi. Shu tariqa O'zbekiston terma jamoasi mazkur musobaqani bitta oltin va ikkita bronza medallari bilan yakunladi. Ma'lumot uchun, dastlabki kun bahslarida 66 kilogrammgacha bo'lgan vazn toifasida vakillarimiz Azizbek Oritqov va Abdurahim Nutfullayev bronza medallari bilan taqdirlangan edi.



### Taxmina Ikromova hisobida ikki medal

21 - 23 mart kunlari Ispaniyaning Marbelya shahrida badiiy gimnastika bo'yicha Gran-pri musobaqasi bo'lib o'tdi.



Ushbu bellashuvda ishtirok etgan O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Taxmina Ikromova bittadan kumush va bronza medallariga ega chiqdi.

Sportchimiz to'pdagi mashqda 28.100 ball bilan shohspaning ikkinchi pog'onasiga ko'tarilgan bo'lsa, ko'pkurash yo'nalishidagi 111.650 ball uning kuchli uchlikdan joy olishini ta'minladi.

«Xalq so'zi».

# MAMLAKAT BO'YLAB YANGILIKLAR, VOQEALAR, TAFSILOTLAR



Azaliy urf-odatlar

O'tov ko'chmanchi turkiy xalqlar yashash tarzining asosiy vositasi hisoblanadi, — deydi Konimex tuman hokimining til masalalari bo'yicha maslahatchisi Guldana Narinbetova. — Tashqi ko'rinishining o'zi keng dala uzra osmon gumbazining ko'chirmasidek taassurot uyg'otib, ko'chmanchilarning ozod ruhini ifodalaydi. Qahraton qish iz'irini yoki saraton jaziramasidan so'ng o'tov ostonasida hatlagan kishi vujudi go'yo jannatga kirgandek orom oladi. Uy ichiga aylana tortilgan turfa rang kigiz va qalin gilamlar ko'z o'ngingizda ajib manzarani gavdalandiradi. Dasturxonida milliy

taomlar, qimiz va shubat. Xususan, ostonadan kirishda chap tomonda uy egasining jihatlarini joylashadi. Bu yerda ot anjomlari, ov qurollari va musiqa asboblari ko'rish mumkin. O'ng tomonda o'choq egasi — ayolning ro'zg'or buyumlari, kasanachilik qurollari o'rin egallagan. Xullas, ro'zg'or uchun kerakli barcha anjomlar shu taxlit o'z joyini topganki, ming-ming yil o'tsa ham, bu ro'zg'or tutumi o'zgarmaydi. Agar ta'bir joiz bo'lsa, o'tovning tepasi osmon gumbazini, shang'iroq esa ofobni eslatadi. — Shang'iroq o'tovning eng xosiyatli qismi. Noming o'zi turli ramziy

ma'nolarga ham nisbat beradi, — deydi mehnat faxriysi Mustafu Egamqulov. — Masalan, "shang'iroq ko'tardi" degani oila qurdi, yigiting azamat bo'lganini anglatadi. Uyning bo'sag'asi esa shunchaki ostona emas, yangi hayot boshlanishi hamdir. Shu bois yangi o'tovni tiklashda ish, eng avvalo, eshik romlarini o'rnatishdan boshlanadi. Cho'lliklar udumida yosh oila o'tovini kelin tomon quradi. Eshikni yigit o'zi bilan olib keladi. Bunda esa ostonaning qo'riqchisi kim ekanligiga ishora yotibdi. O'tov qurilishidan tortib, ichidagi barcha jihat va bezaklari qo'l mehnati

bilan yaratiladi. Ko'zni qamashtirgudek turfa rang gilam va kigizlarning o'zi bir san'at asari. Bezakli tasmalar, qurama ko'rpa-yostiqlar, yigirish va to'qima san'atining namunalari qo'l mehnatining mevasi. Cho'lliklarda "O't boshi — o'choq qoshi" degan hikmat bor. Buning ma'nosi shuki, o't boshi erkak bo'lsa, o'choq qoshi ayollarga tegishlidir. Darvoqe, o'choq, odatda, o'tovning o'rtasida joylashadi. Undagi qozon hech qachon bo'sh qoldirilmaydi. Bu — birinchidan, qozonni himoyalash bo'lsa, ikkinchidan, qozon qaynashi tirlik, hayot davomiyligining ramzidir.

Tarixga razm salsak, o'tov qadimdan chorvador ko'chmanchi ota-bobolarimizning boshpanasiga emas, balki Yilboshi kabi bayramlar o'tadigan joy hamdir. Qaysi xonadonga kirmang, qo'ni-qo'shnisiz o'lis ovulda g' cho'pon oilasi bo'ladimi yoki markazdagi ishchi xonadonining to'kin dasturxonimi, Navro'z bahona mehmon kutayotganining yoki o'tov to'la mehmonning ustidan chiqasiz. Zotan, Navro'z — bayram bahona diyor ayyomi ham.

Temur ESHBOYEV («Xalq so'zi»)


## Inson qadri TO'RTKO'LLIK "TENGIZ"LAR

"Qoraqalpog'film" kinostudiyasi tomonidan suratga olingan "Tengiz" filmi erining xiyonatidan so'ng baxtsiz hodisa sabab poyezd ostida qolib nogironga aylangan ayolning keyingi hayoti haqida hikoya qiladi. Mo'ynoq tumanida olingan filmda uchta ayolning ayanchli taqdiri tasvirlangan. Orolbo'yning eng o'lis, chekka ovullarida turmush mashaqqatlarini yengib yashayotgan "tengiz"lar ko'p.

Tengiz obrazining prototiplaridan biri — to'rtko'llik Salomat O'runboeva. U hayotidagi og'ir mashaqqatlarni yengib, davlatimiz yordami bilan katta yo'lga chiqqan irodasi mustahkam zamonadoshlarimizdan sanaladi. Salomat opa ikkinchi guruh nogironi bo'lgani sababli "ayollar daftari"da ro'yxatda turardi. Ro'zgoriga foyda keltirish istagi bilan mahalladoshlaridan buyurtma qabul qilib, ko'rpa va ko'rpachalar tikardi. Mi-jozlaridan biri mahallasida paxta titish sexi yo'qligini aytganda, Salomat opa ushbu sexni o'zi tashkil etishga kirishdi.



— Davlatimizning qo'llovi bilan paxta titish sexini uyimizda ochishga erishdik, — deydi Salomat O'runboeva. — Yoshligimdan bichish-tikishga qiziqardim. Bir necha yillar davomida ayollar kiyimini tikib kelganman. Momalarimiz gullar qo'yib tikishgan ko'rpalariga havas qilib, shu kasbni o'rgandim. Yurtimizda xotin-qizlar bandligini ta'minlashga qaratilgan buyurtmalarni o'z vaqtida egalarga yetkazayman. Eng asosiysi, o'zim tanlagan hunar ortidan daromad manbaiga ega bo'ldim. Agar "ayollar daftari"dan chiqmay, kam bo'lsa ham nafaqam bor, deya harakat qilmaganimda, hozir mahallamizdagi 8 ta ishsiz ayol qatorida bo'laridim. Shukrki, mustahkam iroda va halol mehnatim bilan o'z hayotimni o'zgartirishga erishdim. Kelgusida tadbirkorlik faoliyatimni kengaytirish niyatim bor.



— Men ham ro'zg'orimga moddiy tomondan hissa qo'shimg kelardi, — deydi Nukus shahridagi Shadli ovul mahallasida istiqomat qiluvchi Muyassar Xolmurodova. — Qo'lmda bajaradigan ishim, demak, daromad ham yo'q edi. Mahallamizda ishsiz ayollarning bandligini ta'minlash maqsadida kredit berilishi haqida eshitdim. Shu tariqa parrandachilik bilan shug'ullanish uchun olgan kredit mablag'i hisobidan 80 ta tovuqni parvarishlab ko'paytirdik. Ayni paytda tuxumlarini sotishdan tushgan daromad ro'zg'orimizning kam-ko'stini to'ldirib turibdi. Yaqinda subsidiya asosida tikuv mashinasi berildi. Tikuvchilikdan xabarim borligi uchun tez orada chevarlar qatoriga qo'shildim, buyurtmalarim ko'paydi.

— Mahalladagi 30 dan 60 yoshgacha bo'lgan 762 nafar ayolning 97 nafari "ayollar daftari"ga kiritilgandi, — deydi To'rtko'lli tumanining Navoiy nomidagi mahalla fuqarolar yig'ini faoli Malohat Begliyeva. — Ularning uch nafariga subsidiya asosida turli jihozlar berilib, bandligi ta'minlandi. Besh nafariga imtiyozli kreditlar ajratildi. E'tiborsiz, oldin o'zi ishsiz bo'lgan ayollar orasida boshqalarni ham ishli qilayotganlari, tadbirkorlik faoliyatini boshlab kengaytirayotganlari ham bor.

...Biz yuqorida bejiz "Tengiz" filmi keltirmadik. Tengiz obrazi bugun nafaqat nogironligi bor, balki to'rt muchasi sog' bo'la turib, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan ko'plab insonlarga g'oyibona kuch-g'ayrat bag'ishlaydi. Buni tadbirkorga aylangan, yoshlarga ibrat bo'layotgan, irodali va matonatli to'rtko'llik ayollar misolida ham ko'rish mumkin.

G'ayrat OTAJONOV («Xalq so'zi»)

## Ibrat YUZ BILAN YUZLASHGAN MOMONING O'GITI

Bu yil yuz bilan yuzlashgan Salomat momo Amirovaning Pastdarg'om tumanidagi Katta Nayman mahallasida hurmati baland. Umrining mazmunini mehnatdan topgan momoning aytishicha, u halolligi va mehnatsevarligi tufayli el-yurt nazariga tushdi. Sakkiz marta tuman va viloyat Kengashlariga, bir marta O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputatligiga saylandi.

Salomat momo ismi jismiga monand, haliyam bardam-tetik. Mahalla-ko'yning to'y-ma'rakalarida kayvoni. Yohlardan pand-nasihatini ayamaydi, shu kunlarga yetkazganiga shukr qilib yashash oilada barakani ko'paytirishini takrorlashdan charchamaydi.

— Bolaligimdan bir burda non o'rini hech narsa bosolmaydigan davrlarga to'g'ri keldi, — deydi Salomat momo. — Bir tuyur bug'doy topilsa, shu bayram edi. O'sha paytlarda odam-



lar ochlikka chidolmay kunjara yeb, shishib o'lganini ham ko'rganimiz bor, tut pishig'iga yetsak, quvonchimiz cheksiz edi. Keyin o'rnining oldi pishardi, olma, uzum deganlaridek...

Qo'shni qizlarga qo'shilib, qora tol bargaklarini sochimizga jamalak qilib o'rardik. Bektosh o'ynab quvnaganlarimiz, paxtadan yasalgan pilikning nim yog'dusida bo'ladigan kitobxonliklar hamon esimda. Hozir bu toshchiroqlarni hech kim ishlatmaydi. Shu yoshga yetib qilgan xulosam shuki, iymonning ham ikki qanoti bo'larkan. Bular — mehnat va sabr. Orzu-umidlarim ushalsin degan odam buni aslo esdan chiqarmasligi kerak. Har bir inson, ayniqsa, ayollar o'z sihat-salamatligini qadrlashi, turmush tarzini oqilona tashkil etishi lozim.

Xalqimizda azaldan yasharish, yangilanish ayyomi sanalgan Navro'z bayrami o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra yoshlikning jo'shqin ruhiga hamohangdir. Qarang, ayymni shodu xurramilik bilan kutib olinib maqsadida yoshlar ishtirokida hasharlar uyushtirilib, turarjoy mavzolari, mahallalar, o'quv dargohlari yanada obod va fayzli ko'rinishga keltirildi. Biz tengi otaxonu onaxonlar, ehtiyojmand kishilar holidan xabar olinib, ularga bayram sovg'alari topshirilmoqda. Hurmat-ehitrom ko'rsatish shunchalik bo'ladi-da!

O'ta-onam, tengdoshlarim orzu qilgan bugungi to'kinchilik zamonini ko'rish, el-yurt, davlatimiz e'tiborida bo'lish nasib etgani uchun Yaratganga shukronalar aytaman. Bularning qadriga yetish shu yurtning kattayu kichik har bir fuqarosining burchi bo'lmog'i lozim. Ilohim, yurtimizni yomon ko'zlardan asrasin, tinchlik-xotirjamlik bardavom bo'lsin!

Abdulaziz YO'LDOSHEV («Xalq so'zi»)



## KO'PKARI ABJIRLIK VA HALOLLIK NAMOYISHI

Yaqin o'tmishda ot sporti, xususan, ko'pkari mamlakatimizda ancha susayib qolgandi. To'y-hashamlar, bayram sayillarida chavandozlik bilan bog'liq musobaqalar kamayib, bu zotdor uloqchi qorabayirlarning kamayishiga olib keldi. Ammo so'ngi yillarda ot sportini rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, chavandozlar maktablarini tashkil etish bo'yicha keng qamrovli ishlar boshlangani natijasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmog'ida.

Nurali polvon Avazov vohaning maqtanishga arziydigan chavandozi edi. U nafaqat Boysun, balki qo'shni respublikalarda ham dong taratgan. Nurali polvonning ot ustidagi mahorati afsonaviy bo'lib, qo'llari o'tning jilovini mahkam tutib ko'zlari yo'lining har bir qarichini chamalardi. U mingan otlar ham chidamli, o'z egasining irodasini anglab, uning har bir ishorasini bajarardi. Nomi g'alabalar bilan bog'langan Nurali polvon Avazov ko'pkarining afsonaviy yulduzi bo'lib qoladi.

Aytmoqchi bo'lganimiz, Bo'ron chavandoz Nurali Avazovning g'ali, otasining munosib izdoshi. Uning ot ustidagi har bir harakati, hayqirishi-yu mahorati, mardligi va jasorati

otasini — Nurali chopag'onni eslatadi. — Ko'pkari bu faqatgina eppchilik, mardlik va jasurlikka o'rgatuvchi sport turi emas, balki o'zbek xalqining g'ururi va orini ko'rsatib beruvchi xalqimiz qadriyatidir, — deydi Bo'ron Avazov. — Oilada to'rt o'g'limiz, bolaligimiz ot ustida o'tdi. Otam bilan ko'pkarilarga borardik. Uydah alohida mashg'ulotlar o'tkazardik. Har gal otam ko'pkari — mardlar o'yini, or uchun maydonga tushish kerak, deb uqtirardi. Agar ko'pkarida g'irrom aralashsa, chavandoz mingan ot ham ranjishini aytardi. Sulolamiz an'analarini davom ettirayotganimdan faxrlanam.

Ota-bobolarimizdan qolgan gap bor — asosiy masala sovringa qo'yilgan qimmatbaho buyum emas, aksincha, chavandozning abjirlik, haqiqat g'alaba qozonishi, adolat qaror topishi va omad doimo mardniki bo'lishidir.

Farhod ESONOV («Xalq so'zi»)

## UY KIMNIKI-YU, UNDA Foyda KO'RAYOTGAN KIM?

Bundan o'n besh yil oldin Qarshi shahrida ko'chmas mulk oldi-sotdisi hamda ijarasida vositachilik qiladigan mashhur bir rietorlik firmasi bor edi. Qachonki, ijaraga yoki uy sotib olishga ehtiyoj sezilsa, aksariyat aholi uning xizmatidan foydalanardi.

Shu voqea sabab ko'chmas mulk oldi-sotdisi hamda ijarasida vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi "qora bozor" hamda bu yerda ish olib borayotgan maklerlar faoliyatini o'rganishga kirishdik. Qarshi shahrida mavjud maklerlarning barchasi ijtimoiy tarmoqlarda o'z guruhlari, sahifalariga ega. Masalan, telegram messengerida maklerlar tomonidan ochilgan "Qarshi uy-joy", "Qarshi uy oldi-sotdi makler xizmati", "Qarshi uy", "Qarshi ijara kvartira", "Qarshi kvartira", "Qarshi uy bozor", "Qashqadaryo Qarshi uy bozori", "Qarshi Qashqadaryo maklersiz uylar", "Qarshi ish e'lon ijara uylar/Qashqadaryo ijara uylar" va shu kabi o'nlab guruhlarning har biri mingtadan ikki yuz mingtagacha a'zoga ega. Ayrim guruhlarga kuniga o'rtacha hisobda 5-6 ta sotiladigan, ijaraga beriladigan uylar haqidagi e'lonlar joylashtirib borilayotgan bo'lsa, ba'zilarining kunlik sahifasi-

da bunday e'lonlar soni 30 — 40 taga yetadi. Ushbu guruhlarda ko'rsatilgan raqamlar bo'yicha goh xaridor, goh uy sotuvchi, boshqa safar ijaraga kvartira izlagan kishi sifatida maklerlarga telefon qilib, ularning xizmat turlari, "xizmat haqi" bilan qiziqdik.

Ayrim mijozlari kam, endi rivojlanayotgan maklerlarni hisobga olmaganda, aksariyat vositachiligi uchun ko'chmas mulk bahosining 2 foizi miqdorida "xizmat haqi" olarkan. Bu xizmat ichiga e'londagi siz tanlagan uyning ko'rsatish, uni xarid qilganingizdan so'ng hujjatlarini rasmiylashtirish jarayonida ko'maklashishi, agar uyning kreditga oloqochi bo'lsangiz, bank bilan bog'liq hujjat ishlari tayyorlashda ham "yo'l-yo'riq ko'rsatish" kabilar kiradi. Deylik, siz 400 million so'mlik uy sotib oldingiz. Makler sizga ko'rsatgan yuqoridagi yordamlari uchun 8 million so'm haq oladi. Xuddi shuningdek, sizga uyini sotgan kishi ham maklerga shuncha miqdorda "xizmat haqi" to'ladi. Demak, 400 million so'mlik bitta uy sotilishidan makler oladigan daromad miqdori 16 million so'mni tashkil etadi. Bir kunda 4 ta uy sotsa,

kunlik daromad ham shuning to'rt barobariga teng bo'ladi! Maqsadimiz birovning cho'ntagini kavlash emas, albatta. Bizni o'yalangin jihat har qanday xizmat sifat bilan bir qatorda, kafolatga ham ega bo'lishi kerak. Hozir ko'chmas mulk bozorida faoliyat yuritayotgan maklerlarning vositachiligi hech qanday yuridik kuchga ham, kafolatga ham ega emas. Ertaga bitim bilan bog'liq qandaydir muammolar kelib chiqqanda, maklerni ayblaydirmaysiz. Unga to'lagan pulingizga kuyib qolaverasiz. Shunisi achinarli. Ko'chmas mulk bozorida ish olib borayotgan "qora makler"larning faoliyatini tartibga solish, ularning qonuniy faoliyat yuritishini ta'minlash borasidagi ishlar holati bilan ham qiziqdik. Bu borada mamlakatimizda tegishli qonunlar, me'yori hujjatlar qabul qilingan. Bu hujjatlardagi normalar ijrosini ta'minlashda mas'ul organlar hamda tashkilotlardan jo'yali munosabat kutib qolamiz.

Jahongir BOYMURODOV («Xalq so'zi»)

## Qozog'iston Milliy muzeyida «Choklardagi meros: O'zbekistonning kashtachilik va tikuvchilik an'analari bo'ylab sayohat» ko'rgazmasi ochildi.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:  
Devonxonona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mulkiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Nabavatchi muharrir N. Ostonov.  
Musahhah S. Islamov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzil:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 00.10 Topshirildi — 01.45 1 2 3 4 5 6